

Koreys Maqollarining Lingvistik va Madaniy Xususiyatlari

Ravshan Khojiev

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda koreys maqollarining (속담) lingvistik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Koreys maqollari xalq ogʻzaki ijodining muhim tarkibiy qismi boʻlib, ular jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari hamda milliy dunyoqarashini oʻzida aks ettiradi. Tadqiqot jarayonida maqollarning asosiy belgilariga — qisqalik va loʻndalik, obrazlilik, umumlashgan maʼno ifodalash, hamda kommunikativ funksiyalariga alohida eʼtibor qaratiladi.

Kalit soʻzlar: koreys tili, 속담(maqol), 간결성(ixchamlik), 구체성(konkretlik), 운율성(ritm), 대우법 (parallelizm)

Kirish

Inson kundalik hayot faoliyatini amalga oshirish jarayonida til muhim rol oʻynaydi, chunki u orqali shaxs oʻz fikrlarini ifodalaydi hamda boshqalarning qarashlariga munosabat bildiradi. Fikr va mulohazalarni yetkazishda oddiy leksik birliklarga nisbatan semantik jihatdan boy va qoʻllanish chastotasi yuqori boʻlgan ifoda vositalari keng qoʻllanadi.[1] Bunday vositalarga frazeologik birliklar, maqollar, taqiqlovchi rivoyatlar (tabu ifodalar), hikmatli soʻzlar hamda aforizmlar kiradi. Mazkur ifodalar deyarli barcha xalqlarda uchraydi va ular orasida ayniqsa maqollar kommunikativ jarayonda faol qoʻllanilishi bilan ajralib turadi. Maqollar butun dunyo xalqlariga xos boʻlgan til va madaniyat merosi sifatida avloddan-avlodga oʻtib keladi hamda muayyan xalqning xulq-atvori, axloqiy meʼyorlari, eʼtiqodi, tafakkur tarzi, anʼanalari hamda tarixiy-ijtimoiy sharoitlarini aks ettiradi.[2] Tarixan yozma adabiy anʼanalarga ega boʻlgan yoki ogʻzaki adabiyot rivojlangan jamiyatlarda maqollardan keng foydalanilishi kuzatiladi. Bu holat, bir tomondan, maqollarning mazmunan chuqur va badiiy jihatdan mukammal ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, ularning qisqa, loʻnda va taʼsirchanligi sababli nutqda oson qoʻllanilishi bilan belgilanadi.[3]

Metodologiya

Maqollar odatda til egalari orasida muayyan voqea-hodisalarni misol tariqasida ifodalash maqsadida shakllanib, avloddan avlodga ogʻzaki tarzda oʻtib kelgan kelgan til birliklari hisoblanadi. Ular oʻziga xos leksik-semantik xususiyatga ega boʻlib, mazmuni hamda ifoda vositalarining xilma-xilligi va qamrovining kengligi jihatdan yagona mezon asosida qatʼiy tasniflash borasida koʻplab bahslarga sabab boʻladi.[4]

Maqollarning mavzusi va tasvirlash usullari turlicha boʻlib, ularda ifodalangan talqin va semantik maʼnolar ham rang-barangdir. Ular turli voqealar, sohalar, madaniyat, tarix, mehnat, muhabbat, vatan, mehr-oqibat kabi keng koʻlamli mavzularni qamrab oladi.[5]

Shu sababli, mavjud ilmiy tadqiqot natijalariga tayangan holda, maqollarning namoyon etuvchi xususiyatlari hamda ularning semantik funksiyalarini tizimli ravishda umumlashtirish orqali maqol tushunchasining yanada aniqroq taʼrif mezonlarini ishlab chiqish maqsad qilinadi.[6]



속담(maqol)atamasi ilk bor Joseon sulolasining o'rta davriga oid 『어우야담(於于野譚)』 hamda 『동문유해(同文類解)』 kabi yozma manbalarda qayd etilgan bo'lsa-da, maqollarning amaliy qo'llanilishi bundan ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xususan, 『삼국유사』 asarining 5-jildida keltirilgan “육면비염불서승(郁面婢念佛西昇)” nomli bo'limda uchraydigan “내 일 바빠 한택[大家]방아 서두른다” mazmunidagi ifoda, uch qirolik davridayoq maqollar keng ommalashgan holda qo'llanilganligini ko'rsatadi.¹ Bu holat maqollarning yozma adabiyotda qayd etilishidan ancha oldin xalq og'zaki ijodi tarkibida faol yashab kelganligini tasdiqlaydi.[7]

Natijalar va muhokama.

Maqollarning yuzaga kelishi masalasi tahlil qilinganda, ularning shakllanishi asosan ikki asosiy manbaga borib taqalishi aniqlanadi. Birinchidan, maqollar muayyan tarixiy voqea-hodisalar, ijtimoiy tajribalar yoki alohida ahamiyat kasb etgan holatlarning tasviri asosida vujudga keladi. Bunday maqollar tarixiy xotiraning til birliklarida ifodalanish shakli sifatida namoyon bo'ladi. [8]Ikkinchidan esa, maqollar kundalik hayotda tez-tez takrorlanib turadigan hodisa va jarayonlarning umumlashtirilgan, tipik tasviri asosida shakllanadi. Bu turdagi maqollar xalqning uzoq yillik kuzatuvlari, hayotiy tajribasi va amaliy donoligini mujassam etadi.[9]

Shu nuqtai nazardan qaraganda, maqollar nafaqat til birligi, balki ijtimoiy ong mahsuli sifatida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular orqali muayyan jamiyatning tarixiy rivoji, madaniy qadriyatlari hamda kollektiv tafakkuri haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Mazkur jihat maqollarni paremiologik va lingvokulturologik tadqiqotlar doirasida o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.[10]

하지영tadqiqotlariga ko'ra, koreys maqollari asosan to'rt asosiy ifoda xususiyatiga — ixchamlik, konkretlik, ohangdorlik va qarama-qarshilik tamoyillariga urg'u berilgan holda ta'riflanadi.

간결성(ixchamlik): Maqollar tez anglash va oson esda saqlashga mo'ljallangan ifodalar bo'lib, ular lo'nda va ta'sirchan shaklda tinglovchining ichki kechinmalariga ta'sir ko'rsatishi hamda unda hamdardlik uyg'otishi zarur. Shu bois, ixchamlik maqollarning asosiy va zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda koreys maqollari odatda o'rtacha o'n bo'g'in doirasida shakllanishi qayd etiladi. Xususan, koreys maqollarida ellipsis (tushirib qoldirish) usulining keng qo'llanilishi ularning ixchamligini ta'minlab, tuzilishning aniqligi, ta'sirchanligi va esda qolish xususiyatini kuchaytiradi.[11]

Masalan,

호랑이도 제 말 하면 온다 - Yo'lbarsni eslasang, o'zi keladi(Bo'rini yo'qlasang qulog'I ko'rinadi)

구체성(Konkretlik): Maqollar odatda mavhum ifodalardan qochib, voqelikni imkon qadar aniq va konkret shaklda tasvirlashga intiladi. Konkretlik past darajadagi abstraksiyaga asoslanib, so'zlovchining shaxsiy hissiyotlaridan qat'i nazar, kuzatuvchi nuqtayi nazaridan bayon etiladigan ifoda usuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyat tilning bevosita hissiy ta'siridan farqli ravishda, voqelik va faktlar orqali ta'sir ko'rsatishga qaratilganligi bilan izohlanadi.[12] Shu sababli, maqollarda ifoda ko'pincha aniq miqdor, hajm yoki o'lchovlar orqali berilib, yanada aniqlashtirilgan tasvir vositasida tinglovchiga kuchliroq ta'sir o'tkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, koreys maqollarida konkret ifodalar bilan bir qatorda, predmetga yo'naltirilgan tafakkur asosida shakllangan mavhum ifodalilik xususiyati ham sezilarli darajada uchraydi.

Masalan,

¹Usmonov nov Yo'lchibek(2023)“한국어와 우즈베크어 속담 대조-신체 어휘 관련 속담을 중심으로”석사학위논문



하늘의 별 따기 - Osmondagi yulduzni olish(juda qiyin yoki deyarli imkonsiz ish. Konkret obraz (yulduz) orqali mavhumlik, imkonsizlik ifodalanadi)[13]

운율성 (ritm) — bu ma'lum oraliqda takrorlanadigan eshitish stimullari orqali yuzaga keladigan ta'sirchanlik xususiyatidir. U asosan leksik takror (so'z va sinonimlar takrori), fonetik takror, sintaktik takror hamda kontrast takror orqali shakllanadi. Koreys maqollarida esa vaqt o'tishi bilan shakl sayqallanib, an'anaviy ritmik tuzilmalar — 4·4 va 5·5 (아이랑조) bo'g'in tizimi asosida ifodalanib, ularning ohangdorligi va ritmikligi ta'minlanadi[14]

Masalan,

동무 따라 강남 간다(4·4조)

Do'stiga ergashib Gangnamga boradi. (Ma'nosi: odam ko'pincha atrofdagilarga taqlid qiladi)

구더기 무서워 장 못 담글까(5·5조)

Qurtlardan qo'rqib, soya pastasi tayyorlamay qo'yarmidi? (Kichik qo'rquv sabab muhim ishni tashlab bo'lmaydi)

대우법 (parallelizm) — bu o'zaro bog'liq predmet yoki tushunchalarni ma'lum sintaktik birliklar orqali simmetrik tarzda yonma-yon qo'yib ifodalash usuli bo'lib, u holat va mazmunning ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu usul qadimdan shakllangan stilistik vosita bo'lib, Sharq adabiy an'alarida, xususan, xitoy yozma madaniyati ta'sirida rivojlangan deb qaraladi. Xitoy madaniy ta'siri ostida shakllangan koreys maqollarida ham parallelizm keng qo'llanadi:

낮 말은 새가 듣고 밤 말은 쥐가 듣는다 — “Kunduzi aytilgan gapni qush eshitar, tunda aytilgan gapni sichqon eshitar. (Har qanday gap aytasangiz, uni kimdir eshitishi mumkin. Shu sababli, har doim gapirganda ehtiyotkor bo'lish zarurligi anglashiladi).

Bundan tashqari 최창렬(1999) tadqiqotlariga ko'ra, maqollarning xususiyatlari quyidagi olti jihat asosida tasniflanadi. Birinchidan, maqollar ularning yuzaga kelgan jamiyatining mahsuli bo'lib, muayyan ijtimoiy muhit va sharoitlarning ta'sirini aks ettiradi. Ikkinchidan, maqollar shakllangan hududning mahalliy (hududiy) xususiyatlarini o'zida mujassam etib, o'sha hududning madaniy hamda geografik belgilarini ifodalaydi. Uchinchidan, maqollar ularning yuzaga kelgan davrining ruhini aks ettiruvchi ifoda bo'lib, o'sha zamonning tarixiy sharoiti va qadriyatlarini o'zida namoyon etadi. To'rtinchidan, maqollar til egalari (nutq ishtirokchilari)ning hayot falsafasini bevosita aks ettirib, jamoaviy tafakkur va turmush tarzini ifodalaydi. Beshinchidan, maqollar ortiqcha unsurlardan xoli, qisqa va lo'nda, shu bilan birga nafis til shakliga ega bo'lib, ifodaning ixchamligi va estetikligini ta'minlaydi. Oltinchidan, maqollar muloqotni yanada ravon va yumshoq kechishini ta'minlab, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytiradi.[15]

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, maqollar tilning muhim paremiologik birliklaridan biri sifatida nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, koreys maqollari xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, dunyoqarashi hamda axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda, avloddan-avlodga og'zaki an'ana orqali uzatilgan boy madaniy meros sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollar o'zining ixchamligi, konkretligi, ohangdorligi va parallelizm kabi ifodaviy xususiyatlari orqali nutqda yuqori darajadagi ta'sirchanlik va esda qoluvchanlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ular muayyan jamiyatning tarixiy, hududiy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim til birligi sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqollarning shakllanishi tarixiy voqea-hodisalar hamda kundalik hayot tajribalariga asoslanishi ularning mazmunan boy va umumlashgan xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ular orqali xalqning ko'p asrlik kuzatuvlari, hayotiy tajribasi va amaliy donoligi ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, maqollarni o'rganish nafaqat



tilshunoslik, balki lingvokulturologiya va paremiologiya sohalarida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular asosida muayyan xalqning kollektiv tafakkuri, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy ongini chuqur tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yhati

- [1] H. G. Kim, *Korean Proverbs and Their Cultural Significance*. Seoul: Seoul National University Press, 2015.
- [2] S. H. Lee, “A linguistic analysis of Korean proverbs,” *Journal of Korean Linguistics*, vol. 42, no. 2, pp. 123–140, 2018.
- [3] Y. J. Park, “Cultural values reflected in Korean idioms and proverbs,” *Korean Cultural Studies*, vol. 10, no. 1, pp. 45–60, 2017.
- [4] N. S. Kim, *Introduction to Korean Phraseology*. Seoul: Yonsei University Press, 2012.
- [5] J. H. Choi, “Semantic features of Korean proverbs,” *Asian Linguistics Journal*, vol. 15, no. 3, pp. 201–215, 2019.
- [6] S. Y. Kang, “Proverbs as a reflection of Korean traditional worldview,” *Korea Journal*, vol. 55, no. 4, pp. 89–104, 2015.
- [7] M. Ramsey, *The Sounds of Korean*. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
- [8] B. Comrie, “Language universals and linguistic typology,” Chicago: University of Chicago Press, 1989.
- [9] A. Wierzbicka, *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press, 1997.
- [10] C. Kramsch, *Language and Culture*. Oxford: Oxford University Press, 1998.
- [11] D. Crystal, *The Cambridge Encyclopedia of Language*, 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
- [12] E. Nida, *Language, Culture, and Translating*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001.
- [13] G. Lakoff and M. Johnson, *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 2003.
- [14] R. Jakobson, “Linguistics and poetics,” in *Style in Language*, Cambridge, MA: MIT Press, 1960, pp. 350–377.
- [15] O. S. Akhmanova, *Dictionary of Linguistic Terms*. Moscow: Sovetskaya Entsiklopediya, 1966.

